



O'ZBEKISTONNING EKSPORT SALOHIYATI : MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

Sobirova Marhabo Haitovna

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali, O`qituvchi

+998919498839 (sobirovamarhabo87@gmail.com)

Xolmatova Munisaxon Sayfiddin qizi

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali, Talaba

+998932174479 (munisaxonxolmatova3001@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning eksport salohiyati tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari o'rganilgan. Eksportning hozirgi holati, asosiy mahsulotlar va bozorlar, shuningdek, diversifikatsiya darajasi ko'rib chiqilgan. Eksportni rivojlantirishda xomashyo mahsulotlarini qayta ishlash, yangi bozorlarni o'zlashtirish va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligi ta'kidlangan. Shuningdek, iqtisodiy hamkorlikning ahamiyati yoritilgan. Maqolada keltirilgan tahlillar va tavsiyalar O'zbekiston eksportining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: eksport, O'zbekiston, 2023-yil, hajm, avtomobil, kimyoviy mahsulotlar, to'qimachilik, mamlakat, sektor, foiz, o'sish

O'zbekistonning eksport salohiyatini tahlil qilish va rivojlantirish jarayonlari ko'plab iqtisodiy nazariyalar va modelga asoslanadi. Eksportni rivojlantirish jarayonida iqtisodiyot nazariyalaridan va iqtisodiy model va kontseptsiyalardan foydalanish muhimdir. Quyida eksport salohiyatini oshirishda qo'llaniladigan asosiy nazariy asoslar keltirib o'taman.

Miqyosdan foydalanuvchilik (economies of scale) nazariyasi shuni ta'kidlaydiki, ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali narxlarni pasaytirish va rentabellikni oshirish mumkin. O'zbekiston uchun bu nazariy asos eksportni diversifikatsiya qilish va ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Kichik hajmdagi ishlab chiqarishdagi



narxlar yuqori bo'lishi mumkin, ammo ishlab chiqarishni kengaytirish va masshtabdagi foydalarni qo'llash eksport salohiyatini kuchaytiradi. David Ricardo tomonidan ishlab chiqilgan komparativ afzalliklar nazariyasi eksport va importni tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Bu nazariyaga ko'ra, har bir mamlakat o'ziga xos resurs va imkoniyatlarga ega bo'lib, eksport qilishda yuqori samaradorlikka erishishi mumkin. O'zbekiston paxta, oltin, tabiiy gaz va boshqa xomashyo mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishda komparativ afzalliklarga ega. Biroq, qayta ishlangan mahsulotlar va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga imkoniyatlar mavjud. Komparativ afzalliklar nazariyasi O'zbekiston uchun qayta ishlash sanoatiga investitsiyalarni jalb qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va eksportni diversifikatsiya qilishda qo'llanilishi mumkin. Xalqaro savdo nazariyalaridan biri – Heckscher-Ohlin modeli bo'lib, bu model mamlakatlarning eksport va importini ularning ishlab chiqarish omillari (mehnat, kapital, tabiiy resurslar) va ulardan qanday foydalanishiga asoslanadi. O'zbekistonning eksport salohiyatini baholashda bu modelni qo'llash orqali mamlakatning resurslarini qanday samarali taqsimlash va qayta ishlash orqali raqobatbardosh eksportni rivojlantirish mumkinligini aniqlash mumkin. O'zbekiston tabiiy resurslar (paxta, gaz, oltin) boyligiga ega bo'lsa-da, kapital va texnologiyalarga sarmoya kiritish orqali yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga erishishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro savdo munosabatlarini kengaytirish va iqtisodiyotning ochiqligini oshirishga intilayotgan bir sharoitda, eksport salohiyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Eksport mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi, chunki u milliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro bozorga olib chiqish, valyuta tushumlarini oshirish va ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Biroq, O'zbekiston eksportining asosan xomashyo mahsulotlariga tayanishi, xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishdagi qiyinchiliklar va logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi mamlakatning global savdo maydonida raqobatbardoshligini cheklamoqda. Shu sababli eksportni diversifikatsiya



qilish, qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi bozorlarni o'zlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishga intilayotgani va xalqaro savdo-sotiq shartnomalarida faol qatnashayotganligi bilan ham bog'liqdir. Ushbu maqolada eksport salohiyatini oshirish yo'llarini o'rganish, iqtisodiyotning globallashuv jarayonlaridagi o'rnini mustahkamlashda muhim hissa qo'shishi haqida batafsil o'rganamiz

O'zbekistonning eksport qilinayotgan mahsulotlari asosan qishloq xo'jaligi va xomashyo sanoati mahsulotlariga asoslangan bo'lib, so'nggi yillarda sanoat mahsulotlari va qayta ishlangan tovarlar eksporti ham o'sishga yuz tutgan. Quyida O'zbekistonning eksport qilinayotgan asosiy mahsulotlari tahlil qilinadi:

O'zbekistonning eksportida eng katta ulushni qishloq xo'jaligi mahsulotlari egallaydi. Bular quyidagilardan iborat:

Meva va sabzavotlar – O'zbekiston tropik va subtropik mintaqalarda joylashgani sababli, meva-sabzavotlar eksporti ham sezilarli. Quruq mevalar, olma, anor, uzum, pomidor va boshqa mahsulotlar xalqaro bozorga chiqariladi. Umumiy eksport ulushi 3,3foizni tashkil etadi.

G'alla – Bug'doy va makkajo'xori kabi g'alla mahsulotlari eksport qilinadi. Umumiy eksport ulushi 15-17foizini tashkil etadi.

O'zbekistonning yer osti boyliklari eksporti ham katta ahamiyatga ega:


Oltin – O'zbekiston oltin ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan biriga ega. Oltin, asosan, Rossiya, Shveysariya va boshqa Yevropa davlatlariga eksport qilinadi. Umumiy eksport ulushining 42,4 foizini tashkil etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston sanoat mahsulotlarining eksporti ham sezilarli darajada o'smoqda:

Tekstil va tikuvchilik mahsulotlari – Paxtadan tayyorlangan matolar, kiyim-kechak va boshqa tikuvchilik mahsulotlari eksport qilinadi. Umumiy eksport ulushining 10,4foizini tashkil etadi.

Kimyoviy mahsulotlar – Mineral o'g'itlar va boshqa kimyoviy mahsulotlar eksport qilinadi. eksport qiymati esa 4,86milliard dollarni tashkil etadi.

Avtomobillar va avtomobil ehtiyot qismlari – "UzAuto Motors" va boshqa kompaniyalar avtomobillarni eksport qilmoqda. Umumiy eksport ulushining 4foizini tashkil etadi. Qiymati esa 682million dollar teng.



2023-yildagi O`zbekiston eksporti foizlarda

Davlat tomonidan eksportni rag'batlantirish uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish, bojxona imtiyozlari va soliq siyosatini optimallashtirish. O'zbekistonning eksportchilariga soliq imtiyozlari, kreditlar va subsidiyalar berish orqali rag'batlantirish mumkin.

Shu sababli “ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-oktabrdagi “Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6091-son [Farmoni](#) va 2021-yil 13-iyuldagi “Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida”gi PQ-5184-son [qaroriga](#) asosan eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalari va eksportoldi moliyalashtirish kreditlari uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan Eksportni rag'batlantirish agentligi huzuridagi Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga 200 million AQSh dollari ajratilganligi haqida ma'lumot berilgan “



Bojxona va soliq tartibotlarini soddalashtirish va sarmoyalarni jozibador qilish uchun iqtisodiy islohotlarni davom ettirishimiz alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston mahsulotlarini jahon bozorlariga taqdim etish va ularga talabni oshirish uchun eksport marketingiga e'tibor qaratish zarur. Mahsulotlar brendini yaratish va eksport strategiyalarini optimallashtirish orqali, mamlakatning eksport mahsulotlari jahon bozorlarida tanilishi kerak. O'zbekistonning eksport qilayotgan mahsulotlari uchun yangi bozorlar topish qiyin. Buning sababi tashqi bozorlarga kirishda mavjud bo'lgan savdo to'siqlari va bozor talablarini to'liq o'rganmaslikdir. Shuning uchun diplomatik va savdo aloqalarini mustahkamlash, yangi savdo kelishuvlari tuzish va O'zbekistonni xalqaro tashkilotlarga kengroq jalb qilish kerak. Bundan tashqari, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan kadrlarning malakasi past. Bu esa yuqori texnologiyali va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli kadrlar tayyorlash dasturlarini kuchaytirish zarur deb hisoblayman. Xalqaro talabga javob beradigan malakali ishchi kuchini tayyorlash uchun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va maxsus kurslar tashkil etilsa, O'zbekistonda ham kadrlar va boshqaruvchilar malakasi yuqorilab boradi.

Xulosa: 2023-yilda O'zbekistonning eksporti sezilarli darajada o'sdi va mamlakatning iqtisodiy faoliyatida muhim o'rin tutdi. Eksportning umumiy hajmi 16,6 milliard dollarga yetdi, bunda elektronika, avtomobillar, neft va gaz, to'qimachilik mahsulotlari, kimyoviy mahsulotlar, farmatsevtika, transport va turizm kabi sohalar muhim rol o'ynagani statistik ko'rsatkichlarda ko'rib o'tdik. Avtomobil va avtomobil ehtiyot qismlari eksporti 682 million dollarni tashkil etdi, bu esa 2022-yilga nisbatan 23% o'sishni ko'rsatadi. Bu esa bizning mamlakatimiz uchun yana bir ijobiy ko'rsatkich deb aytisak mubolag'a bo'lmaydi. To'qimachilik mahsulotlari, kimyoviy mahsulotlar va farmatsevtika eksportida ham o'sishlarni kuzatdim. Shuningdek, O'zbekistonning yangi bozorlar bilan savdo aloqalari kengayib, yangi mahsulotlar eksportga chiqarish uchun yurtimiz yana bir pag'ona yuqoriga ko'tarildi deb o'ylayman.



Umuman olganda, 2023-yil O'zbekistonning tashqi savdo faoliyatida ijobiy o'zgarishlarni ko'rdim, eksport diversifikatsiyasining kuchaydi va yanada rivojlanib bormoqda. Shuning uchun yangi eksport imkoniyatlarini yaratish bo'yicha yirik yutuqlarga erishishimiz imkoniyatlari kun sayin ortib bormoqda deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Saidov, R. (2020). O'zbekistonning eksport salohiyati: tahlil va rivojlantirish yo'llari. Tashkent: O'zbekiston iqtisodiyot universiteti nashri.
2. Jumaniyozov, F. (2019). Xalqaro iqtisodiyot va eksportni rivojlantirish. Tashkent: O'zbekiston iqtisodiyot va servis akademiyasi.
3. Samatov, M. (2022). Eksportni diversifikatsiya qilishning iqtisodiy asoslari. Tashkent: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi.
4. Akramov, A. (2021). Logistika va transport tizimi: eksportning samarali tashkil etilishi. Tashkent: Xalqaro iqtisodiy munosabatlar va savdo akademiyasi.
5. Shamimov, S. (2018). O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish. Tashkent: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi.
6. World Bank. (2020). Uzbekistan Export Performance: Challenges and Opportunities. World Bank Group.
7. UNCTAD. (2021). World Investment Report: Exports and Development. United Nations Conference on Trade and Development.
8. <https://lex.uz/ru/docs/-5617897?ONDATE=01.01.2024>
9. <https://daryo.uz>
10. <https://kun.uz>